

INNOVATSION YONDASHUV ASOSIDA 5-8 SINF O'QUVCHILARINING DUNYOQARASHINI RIVOJLANTIRISH TABIIY GEOGRAFIYA FANLARI MISOLIDA

Suyunov G'ayrat Nasullayevich

Qiziltepa tuman ixtisoslashtirilgan maktabi geografiya fani o'qituvchisi

suyunov.gayrat@inbox.ru. Tel:99.075-66-03

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10227802>

Annotatsiya: Ushbu maqolada Geografiya darslarini yanada samarali tashkil qilish, o'quvchilarni fanga qiziqtirish, geografiya darslarida o'qituvchilar tomo-nidan o'quvchilarga geografik jarayonlarni osonroq yetkazib berish haqida fikr yuritiladi. Maqolada muallif tomonida ishlab chiqilgan metodlar ham o'rin olgan.

Kalit so'zlar: Kim ko'p ma'lumot aytadi, O'rningni top!, Zakovatli o'quvchi, Nima uchun ?.

Jahonda fan va texnika taraqqiyotining jadallik bilan amalga oshishi, innovatsion texnologiyalarni o'zlashtirish bilan bog'liq bo'lgan o'zgarishlar yangi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy o'zgarishlarni keltirib chiqarmoqda. Bunday o'zgarishlar globallashuv sharoitida barcha sohalarda kuchli raqobat muhitini shakllantirib, o'z navbatida, ta'lim sohasiga nisbatan yangi talablarni qo'yimoqda.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida «o'qitish metodikasini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tadbqiq etish, xalq ta'limi sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalarni joriy etish»¹ vazifalari belgilangan. Bunday yondashuv tufayli, ta'lim tizimida geografiya fani o'qituvchilarini zamonaviy ta'lim va innovatsion texnologiyalarni, ilg'or xorijiy tajribalardan foydalanish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta'lim-tarbiya jarayonlariga keng tadbqiq qilish o'ta muhim vasifa hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimida so'ngi bir yilda yetmishga yaqin O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining qaror, farmon va farmoyishlari qabul qilindi. Bu tom ma'noda, ta'lim tizimida o'zgarishlar va yangilanishlar jarayonini boshlab berdi.

Jumladan, "Umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'limni tizimli isloh qilish-ning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish, o'quv-tarbiya jarayoniga ta'limning innovatsion shakllari va metodlarini joriy etish" kabi qator vazifalar belgilab berildi. Haqiqatdan ham, umumiy o'rta ta'lim muassasalarining milliy metodologiyasini takomillashtirish, rivojlangan davlatlarning o'qitish metodikalarini o'rganish va milliy qadriyatlarimiz singdirilgan metodik asoslarini tashkil etish, raqamli va keng formatli masofaviy ta'lim metodlarini o'zlashtirish bugungi taraqqiyot darajasi bilan uzviy aloqador. Maktablar ol-diga qo'yilayotgan asosiy talablardan biri - yuqori malakali, o'z sohasining bilimdoni bo'lgan o'qituvchilar bazasini shakllantirish bilan birga, metodologiya-ning to'g'ri tashkil etilishi, tanlangan texnologiya va metodlarning mavzularga muvofiqligini ta'minlashdir. Metodologiyani rivojlantirish o'quvchilarning muayyan nazariy bilimlarini puxta o'zlashtirishga, vaqtni tejashga, har bir o'quvchini faollikka undashga, ularning erkin va

¹ «O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-5712-sonli Farmoni //Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.. 06/19/5712/3034-son, 29.04.2019 y.

mustaqil fikrlash layoqatini hamda o'z fikri-ni himoya qila olish ko'nikmalarini shakllanishiga olib keladi. Ayniqsa, bugungi o'quvchi yoshlarning ilm o'rganishga chanqoqligi, mustaqil, ilmiy-ijodiy izlanish-lari, innovatsion g'oyalarga nisbatan cheksiz qiziqishi – o'z-o'zidan dunyo munosabatlarida yangi dunyo munosabatlari paydo qilishga, ta'limning yanada yangi qirralarini kashf etishga, xalqaro tajribalar asosidagi o'qitish metodikalarini o'qi-tuvchilarga o'rgatishga, o'quv jarayonini zamonga mos shaklda tashkil etishga undaydi. Ta'lim ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish orqali o'quvchi-larni hayotga muassasalarida amaliy faoliyat tajribasini tarkib toptirish, tayanch kompetensiyalarni shakllantirish, ijtimoiy hayotga samarali tayyorlash jarayonla-rini tashkil etish va pedagoglar kompetentligini rivojlantirish, kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan tayyorlashga katta e'tibor qaratilmoqda.

“Umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish, o'quv-tarbiya jarayoniga ta'limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish ” kabi vazifalar belgilab berildi. Geografiya darslarida o'quvchilarning qiziqishlarini yanada oshirish uchun darslarni qiziqarli tashkil qilish maqsadga muvofiq. Ba'zi o'qituv-chilar o'quvchilarning darslarga befarqligidan, ko'proq vaqtini telefon, kompyuter oldida o'tkazishini aytib nolihsadi. Buning sababi, ehtimol o'qituvchilarning darslarni qiziqarli tashkil qila olmayotganligidamikan deb o'ylab qoladi kishi. “ GEOGRAFIK TOPISHMOQ ”, “KIM KO'P MA'LUMOT AYTADI?”, “NIMA UCHUN?”, “RAQAMLAR SO'ZLAGANDA”, “ORQADA QOLMANG”, “MAVZU MA'LUMOTLARINI HAYOT BILAN BOG'LASH”, “ZAKOVAT-LI O'QUVCHI, “ O'RNINGNI TOP” metodlari .

Birinchi metod. Quyida berilgan Geografiya faniga oid topishmoqlardan o'z o'rnida , dars berayotgan sinflardagi o'quvchilarning yosh xos xususiyatlari, bilim darajasini hisobga olib, muammoli vaziyatlar tazida foydalanish yoki guruhlarda ishlash jarayonida sinf o'quvchilarini ikki guruhga bo'lib, ketma – ketlikda topish-moqlarni navbati bilan guruhlariga berib, o'ylashlari uchun besh soniya vaqt berish orqali, 5-, 6-,7-,8- sinflarda tabiiy geografiya darslarida o'quvchilarning qiziqishi va e'tiborini yanada ortirishiga zamin yaratadi yaratiladi. Geografiya faniga oid topishmoqlardan¹ namunalar:

Topishmoqlar	Javoblar
1. Yo'ldan adashib Tolib, Rosa qolibdi horib. Xarita va plan ham, Kompas, gnomonlar ham, Qolgan edi yo'qolib, Ne qilsin endi Tolib? Ketsin shaxdam yo'l solib, Daraxtlarga qarabmi, Tog' - suvlarda yayrabmi ?	Daraxtlarga qarab aniqlash

2. Unga o'simliklar yuzini burar, Qumursqalar inin og'zin qurar, "Avstraliya" - so'zi unga taqalar, Bu tomonning nomi qanday atalar ?	Janub
---	--------------

Ikkinchi metoddan – foydalanish orqali darsda ko'pchilik o'quvchilarni baholash imkoniyatiga ega bo'lish mumkin. Bu metod “ **Kim ko'p ma'lumot aytadi?**” deb nomlangan bo'lib, uni quyidagicha tashkil qilish mumkin: Sinfda nechta qator bo'lsa har bir qatordan bittadan o'quvchi doskaga chiqib ma'lum bir mavzu bo'yicha birin – ketinlik bilan bittadan ma'lumot aytadi, 5 soniyada uzilish bo'lgan o'quvchi yutqazib joyiga o'tiradi. Oxirida qolgan va eng ko'p ma'lumot aytgan o'quvchi g'olib sifatida rag'batlatiriladi.

¹ ” Geografik topishmoqlar ” internet


Uchinchi metod – Raqamlar so'zlaganda deb nomlangan bo'lib, o'qituvchi o'tilgan mavzularga oid ramlarni doskaga yozadi. O'quvchilar tezda ushbu raqam-lar nimani bildirishini izohlab berishlari lozim. Masalan , 11022 m, 4643 m, 4484 m, 13 ta , 1507 yil , 1498 yil, 1595 yil , 1966 yil, 1976 yil ... , 11022 m – Oliy o'quv yurtlari uchun ozgina murakkabroq 100 metrda 0,6 ° C, har 1000 m da 6° C, har 1000 metrda 33° C, 1500 m/sek.... Ushbu metodlardan o'z o'rnida foydalanilsa dars samaradorligi yanada ortadi.

To'rtinchi metod – Nima uchun? usulidan geografiya darslarida foydalanish. O'rta Osiyo va O'zbekistonda vujudga kelgan hududiy (lokal) ekologik muam-mo – bu Orol dengizi suvining qurishi muammosi bo'lib , u so'ngi vaqtlarda dunyoviy (global) ekologik muammoga aylanib ulgurdi. **1911-1960** yillar davo-mida Orol dengiziga har yili o'rtacha **52** km³ suv quyilib kelgan va uning sathi muntazam ravishda 53 m mutloq balandlikda, akvatoriyasi **66 ming** kv.km , dengizning o'rtacha chuqurligi **16** m ni tashkil qilgan. O'rta Osiyo va Janubiy Qozog'istondagi qo'riq yerlarning o'zlashtirilishi, qator yirik suv omborlari-ning bunyod etilishi, kanallar, kollektor - zovurlar tizimlarini qurib , ishga tushi-rilishi natijasida **1961** – yildan boshlab Amudaryo va Sirdaryodan Orol dengizi-ga tushadigan suvlar miqdori kamaya boshladi, buning oqibatida Orol dengizi-ning suv sathi pasayib, maydoni qisqara boshladi, suvining sho'rlanganlik da-rajasi esa orta boshladi.¹ Ushbu muammoni Geografiya darslarida o'quvchilarga tushuntirishda quyidagi yangi pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanil-sa, darslarning samaradorligi yanada oshgan bo'lar edi: « **Nima uchun?** » sxemasi usuli - muammoning dastlabki sabablarini aniqlash bo'yicha fikrlar zanjiri-dir. Tizimli, ijodiy, tahliliy fikrlashni rivojlantiradi va faollashtiradi. Muammoni aniqlash, uni hal etish, tahlil qilish va rejalashtirish usuli. Buning uchun o'quvchi-lar « Nima uchun ? » sxemasini tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Alohida kichik guruhlarda muammoni ifodalaydilar. « Nima uchun? » so'rog'ini beradilar va chi-zadilar, shu savolga javob yozadilar. Bu jarayon muammoning dastlabki sababi aniqlanmagunicha davom etadi. Orol dengizi suvi qurishi muammosining dast-labki sababini aniqlash uchun 4 marta Nima uchun ? degan savolga javob be-riladi:1.Nima uchun Orol dengizi suv sathi pasaydi ? Javob: Chunki Orol dengi-ziga quyiladigan Amudaryo va Sirdaryo kam miqdorda suv quygan. 2.Nima uchun Amudaryo va Sirdaryo Orol dengiziga kam miqdorda suv quygan? Javob: Chunki Amudaryo va Sirdaryodan ko'plab kanallar qazilgan. 3. Nima uchun Amudaryo va Sirdaryodan ko'plab kanallar qazilgan? Javob: Chunki cho'llarni o'zlashtirish va suv chiqarish uchun kanallar qazilgan. 4. Nima uchun cho'llar o'zlashtirilgan? Javob: Chunki sobiq Ittifoq hukumati

tomonidan 1948 - yilda «Qo'riq va bo'z yerlarni o'zlashtirish to'g'risida»gi qarori qabul qilingan.

¹ Rafiqov.V " Amaliy geografiya " . – T. " Sharq "2004. – 92 – 94 b.

Orolbo'yi hududida ekologik vaziyatni yaxshilashning asosiy **yo'llari**: aholini toza ichimlik suv bilan ta'minlash, qurib qolgan o'zanlar, ko'llarga muntazam ravishda suv yuborish, dengizning qurigan qismida shamol harakatini to'sish uchun qumlarni o'simliklar bilan mustahkamlash , yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, yaylovlar, pichanzorlar maydonlarini kengaytirishdan iborat.



Beshinchi metod «Orqada qolmang!» metodidan darsning o'tilgan mavzuni tak-rorlash, o'tilgan mavzuni mustahkamlash qismida foydalanilsa ko'proq o'quvchi-larni baholash, hamda o'quvchilarning faolligini yanada oshirish mumkin. Ushbu metodni 6-, 7-,8- sinflarda qo'llash uchun doskaga ikki o'quvchi chiqadi, ularning birining qo'lida TOG'LAR, ikkinchisining qo'lida esa DARYOLAR yozuvlari bo'ladi. Stol ustuda daryo va tog'lar nomlari yozilgan yozuvlar teskari bilan qo'yilgan bo'lib, partada o'tirgan o'quvchilar chiqib, bittadan yozuvni olib o'qiydi va daryo nomi chiqsa, DARYOLAR yozuvini ushlab turgan o'quvchi bir qadam oldinga yuradi, aksincha tog' nomi chiqsa TOG'LAR yozuvi ushlagan o'quvchi bir qadam oldinga yuradi. Oliy o'quv yurtlarida Jahon mamlakatlari iqtisodiy va ijti-moiy geografiyasi fanida RESPUBLIKA va MONARXIYA, FEDERATIV va UNITAR, YEVRONA va OSIYO nomlarini yozib davlatlar to'g'risidagi o'quv-chilarning bilimni sinab ko'rish mumkin. Talabalarga qo'shimcha aytilgan davlat-ni xaritadan topib, qaysi qit'ada joylashganligini ham aytib o'tsalar foydadan holi bo'lmas edi. Yuqorida berilgan metodlarni qo'llashda o'qituvchilarning ijodkorli-gi, sinflar va guruhlarni o'ziga xosligi, yosh xususiyatlarini inobatga olib yanada samarali foydalanishlari mumkin. **Oltinchi metod** «Mavzu ma'lumotlarini hayot bilan bog'lash». Ushbu metodda o'qituvchi asosan mavzu ma'lumotlarini hayoti-mizning turli sohalari bilan bog'lab tushuntirsa, mavzu o'quvchiga yaxshi tushu-narli bo'ladi va esidan chiqmaydi. 2022-yil 12-13 aprelda PISA dasturining tashab-buskori va rahbari **Andreas Shlyayxer** bilan bo'lgan suhbatda O'zbekiston ta'lim tizimidagi kamchiliklardan biri ta'limning hayot bilan bog'lanmaganligi tanqid qilingan edi. Shundan kelib chiqib maktablarda darslar davomida ushbu bog'liq-likni chuqurlashtirish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Chunki shu yo'l orqali o'quv-chilarning fanga qiziqishini oshirish va mavzuni tushuna olishini osonlashtirgan ¹«Respublika ta'lim markazi umumiy o'rta ta'limda geografiya fanini o'qitish metodikasi " .T. 2020. 55-b bo'lamiz. Masalan, Milliy o'quv dastur dasturidagi o'zgarishga asosan 8-sinfda O'zbekiston tabiiy geografi-yasi fanidan O'zbekiston tuproqlar mavzusida tuproqlarni unumdorligini oshirishda mahalliy o'g'itlardan foydalanish orqali tabiiy sog'ligimiz uchun foydali oziq - ovqat mahsulotlarini yetishtirish

mumkinligi, hamda o'quvchilarni ijtimoiy foydali mehnatga undagan bo'lamiz, **Quyi Zarafshon** tabiiy geografik okrugi mavzusida Buxoro va Gazlidagi yer qimirlash haqida gapirganda zilzila vaqti qanday harakat qilish kerakligini tushuntirib o'tish foydadan xoli bo'lmas edi. Bunday misollarni har bir fandan har bir mavzularda qo'llash mumkin. 8-sinfda O'zbekiston iqtisodiyotini hududiy tashkil etish bobida iqtisodiy rayonlar haqida gapirib, ularning betakror tabiati, tarixiy madaniy yodgorliklarini ko'z - ko'z qilish orqali ichki tu-rizmni rivojlantirish va yoshlarni tadbirkorlikka yo'naltirish mumkin. Oliy o'quv yurti talabalari bajaradigan kurs ishilar va bitiruv malaka ishlarini asosan Respub-likamizning turizm, tabiatni muhofaza qilish, iqlim o'zgarishlari, ekologik muam-molar yechimi, suvni tejash kabi hayotiy dolzarb mavzularda amalga oshirilsa, yuqoridagi muammolarga ilmiy asosda o'z yechimini topgan bo'lar edi.

Yettinchi metod – Zakovatli o'quvchi ham darsni samaradorligi oshirsa, ham o'quvchilarning darslarga qiziqishini oshiradi.

I. 9-sinflarda hamda oily o'quv yurtlaring 3-bosqich talabalari uchun Amerika Qo'shma shtatlari mavzisida: 1. AQSHning Davlat Gerbidagi burgut panjalari-dagi 13 ta kamon o'qi nimani anglatadi? 2.Rojdetstvo bayrami dasrturxonida nima albatta bo'lishi kerak.J:kurka go'shti 3.AQSHda gaz quvurlari yotqizilgandan so'ng, gaz bilan birga xom go'sht hidi ham aralash yuborilar ekan. Buning sababi nimada? II. Transport mavzusida:1992 yilda u transport tarmog'i ichida rekord o'rnatgani uchun Ginnesning rekordlar kitobiga kiritilgan. 60 joyda to'xtab tezlikni 36,5 km/ soatgacha oshira olgan. Bu qaysi transport tarmog'i? J: Lift. III. Rossiya mavzusidan: XVII asrda Rossiyada qalbaki pullar yasash chinakam falokatga ay-lanib ketgan. Ish shu darajaga bordiki, qalbaki pullarni dehqonlar va hatto qash-shoqlar ham zarb qiladigan bo'ldilar. Senat tomonidan tuzilgan maxsus komissiya-ning qanday taklifi bilan qalbaki pul zarb qilishga chek qo'yildi? Osiyo mamlakat-lari mavzusida: 1995 yili Vyetnamda sichqon va kalamushlar ko'payib ketadi. Shu darajada ko'payib ketadiki, hukumat maxsus qaror chiqaradi. Ma'lum muddat ba'zi taomlarni restoran va oshxonalar menyusidan olib tashlash darajasigacha yetib bordi. Savol: qanday taomlar olib tashlanadi? IV. O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi fanida "Dehqonchilik" mavzusida: " Uning achchig'i yurak-dagi qurtni o'ldiradi, bemazasi me'dani baquvvat qiladi, shirini semirtiradi. Toppingchi qadimda tabiblar nima haqida aytib o'tishgan? J: (qovun)¹

¹Abdullayev A. " Daqiqa qadri".T. "Davriy press"468 b.

Yuqorida berilgan metodlarni qo'llashda o'qituvchilarning ijodkorligi, sinflarni o'ziga xosligi, o'quvchilarning yosh xususiyatlarini inobatga olib yanada samarali foydalanish orqali, geografiya fanidan o'quvchilarning o'zlashtirishlarini yaxshi-lashlari mumkin, qolaversa fanning mavqeyini ko'tarishdek g'oyat yuksak ishda o'zlarining munosib hissalarini qo'shgan bo'lar edilar.

Sakkizinchi–O'rningni top! metodida mavzularga berilgan geografik obektlarning o'rnini qit'alar yoki Yer sharidagi o'rnini tasavvur qilishda qo'l keladi. 7-sinflarda Dunyo okeani mavzusida 4 nafar o'quvchi doskaga chiqib okeanlar nomlari yozilgan yozuvlarni olib 4 ta okeanning maydoniga ko'ra ketma-ketlikda turib olishlari kerak bo'ladi(6 nafar o'quvchi 6 ta materikni maydoniga ko'ra). O'zbekistonning tabiiy geografiyasi fanidan Vatanimiz hududidagi botiqlarni chuqurligiga ko'ra, tog' cho'qqilarini balandligiga ko'ra, daryolarni uzunligiga ko'ra va boshqalarni o'yin tarzida tushuntirsak darslarimiz yanada qiziqarliroq bo'lar edi.Oliy o'quv yurtlarida Germaniya Federativ Respublikasi mavzusidagi dars mashg'ulotida Yevropa

qit'asida Germaniya iqtisodiyoti rivojlanishiga ko'ra, maydonining kattaligiga ko'ra, aholisi soniga ko'ra qaysi o'rinni egallashini guruh talabalaridan 6 nafari doskaga chiqib, 6 ta davlat nomi (Rossiya, Germaniya, Fransiya, ...)lari nomlari yozilgan yozuvlar bilan o'z o'rinlarini egallashlari kerak bo'ldi. Bu geografik o'yinni talabalar zo'r qiziqish bilan amalga oshiradilar. Ushbu metodlardan foydalanib darslarni tashkil qilish orqali geografiya fanidan o'quvchilarning o'zlashtirish samaradorligini 15-30% gacha ko'tarish mumkinkigi o'z isbotini topdi. Bunday natijaga erishish uchun o'quvchilar va talabalarning yosh xususiyatlari, sinf va guruhlardagi psixologik holat, ayniqsa pedagoglarimizning bilim va tajribasiga bog'liq. Chunki hozirgi zamon o'quvchi va talabasiga 20-30 yil avvalgi metodika bilan dars o'tish juda qiyin, shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi globallashuv davrida dars mashg'ulotlarini innovatsion yondashuv asosida tashkil qilinsa katta yutuqlarga erishish mumkin.

References:

1. Abdullayev A. Daqiqa qadri. T. " DAVR PRESS" . 2010 yil. 458 bet
2. Abdiyeva Z.A. Geografiya fanida noan'anaviy dars uslublaridan foydalanish. - Navoiy, 2003. 68 b.
3. Abdug'aniyev I. Geografiya darslarida ta'limning texnika vositalaridan foydalanish. -T.: O'qituvchi, 1990. 77 b.
4. Abduqodirov A.A va boshlar. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. - T.: Iste'dod jamg'armasi, 2008. -145 b
5. Rafiqov V. Qiziqarli geografiya. T. «Sharq», 2010. 304 b
6. "Geografik topishmoqlar" internet